



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK VAZIRLIGI
B U Y R U Q

2023-yil “23” fevral

13 -son

Toshkent shahri

**O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni
qisqartirish va bandlik vazirligi tizimida
xodimlarning Odob-axloq qoidalariga oid
normalarni tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022 yil 14 oktyabrdagi 595-son qarori ijrosini tashkil etish, shuningdek, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi (Keyingi o‘rinlarda – Bandlik vazirligi) tizimi xodimlari uchun odob-axloqning yagona prinsplari va qoidalarini belgilash, ularning o‘z xizmat vazifalarini vijdonan va samarali bajarishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, davlat xizmatida suiiste‘molliklarning oldini olish maqsadida,

B U Y U R A M A N:

1. Quyidagilar:

Bandlik vazirligi tizimi xodimlarining Odob-axloq qoidalari **1-ilovaga**;

Bandlik vazirligi Odob-axloq komissiyasi tarkibi **2-ilovaga**;

Bandlik vazirligi Odob-axloq komissiyasi to‘g‘risidagi nizom **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmalari, tizim hamda tasarrufiy tashkilotlar rahbarlari **bir hafta muddatda** o‘z faoliyatlari xususiyatlarini hisobga olgan holda mazkur Odob-axloq qoidalari asosida tarkibiy bo‘linmalar xodimlari uchun majburiy bo‘lgan xodimlarning idoraviy Odob-axloq qoidalarini ishlab chiqsin va o‘rnatilgan tartibda tasdiqlasin.

3. Inson resurslari va kadrlar salohiyatini rivojlantirish bo‘limi, Yuridik ta‘minlash bo‘limi (A.Abdukarimov) bilan birgalikda **bir hafta muddatda** Bandlik

vazirligi markaziy apparatining "Ichki mehnat tartibi qoidalari"ni ishlab chiqib, o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirish choralari ko'rsin.

4. Odob-axloq komissiyasiga, Inson resurslari va kadrlar salohiyatini rivojlantirish bo'limi hamda kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan hamkorlikda Odob-axloq qoidalarining qo'llanilishi monitoringini olib borish va tahlil qilish, zaruratga ko'ra Odob-axloq qoidalarini yana-da takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish vazifasi yuklatilsin.

5. Tashkiliy nazorat boshqarmasi (M.To'rabekov) mazkur buyruq nusxasini markaziy apparat, hududiy va tasarrufiy tashkilotlarga yetkazilishini ta'minlasin.

6. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish vazir o'rinbosari R.Turdiboyeva zimmasiga yuklansin.

Vazir

B.Musayev

